



## “TILNING IJTIMOYIY QATLAMLAR BO‘YICHA O‘ZGARISHI: GENDER VARIATIVLIK”

Bozorova Zulxumor Ilxom qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti tillar fakultet o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

301-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18034829>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-dekabr 2025 yil  
Ma’qullandi: 20-dekabr 2025 yil  
Nashr qilindi: 23-dekabr 2025 yil

### KEYWORDS

variativlik, lisoniy  
tafovut, tilning ijtimoiy  
tabiati, gender lingvistika, jinsga  
oid nutq xususiyatlari,  
sotsiolingvistika,  
o‘zgaruvchanlik, nutq modeli,  
ijtimoiy factor, lingvistik  
birlik, moslashuvchan  
tizim, kommunikativ jarayon..

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi variativlik hodisasi, uning til tizimidagi tabiati va ayniqsa gender variativlik misolida tilning ijtimoiy qatlamlar bo‘yicha o‘zgarishi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot doirasida tilning o‘zgaruvchanlik xususiyati, lingvistik birliklarning ijtimoiy faktorlar ta‘sirida turlicha shakllanishi hamda erkaklar va ayollar nutqidagi lisoniy tafovutlarning sabablari tahlil qilinadi. Gender lingvistika nuqtayi nazaridan jinsga oid nutq xususiyatlari, ularni yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omillar, kommunikativ jarayon va madaniy an‘analarning tilga ta‘siri misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Maqolada o‘zbek jamiyatining tarixiy, madaniy va ijtimoiy konteksti bilan bog‘liq ravishda genderga oid nutq modeli qanday shakllanishi, variativlikning til taraqqiyotidagi o‘rni va tilning moslashuvchan tizim sifatida jamiyatdagi rollar bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy asoslangan holda tahlil qilinadi.*

Til — bu faqat aloqa vositasi emas, balki murakkab va o‘zgaruvchan ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyat tarkibi, madaniyat, kommunikativ jarayonlar va insonlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Tilning ijtimoiy tabiati shundaki, u doimo harakatda, o‘zgarishda va moslashishda bo‘ladi. Bu jarayonlar tilshunoslikda variativlik atamasi orqali ifodalanadi. Variativlik deganda lingvistik birliklarning muayyan sharoit, hudud, ijtimoiy qatlam yoki jinsga bog‘liq holda turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi tushuniladi.

Zamonaviy tilshunoslikda gender lingvistika yo‘nalishi alohida ilmiy maydon sifatida shakllandi. U erkaklar va ayollar nutqidagi farqlarni nafaqat leksik, grammatik yoki fonetik jihatdan, balki ijtimoiy faktorlar asosida ham izohlaydi. Chunki tilning moslashuvchan tizim sifatida jinsga oid nutq xususiyatlarini ko‘rsatib berish imkoniyati juda keng.

### Variativlik tushunchasining umumiy mazmuni va tilshunoslikdagi o‘rni nima?

Tilshunoslikda variativlik tushunchasi tilning o‘zgaruvchanlik xususiyatini ifodalaydi. Har qanday til – yashovchan, moslashuvchan va turli kommunikativ vaziyatlarga mos ravishda shakllanadigan tizim. Bu o‘zgaruvchanlik tilning fonetik, morfologik, sintaktik, leksik qatlamlarida turlicha namoyon bo‘ladi.

### Variativlik va tilning ijtimoiy tabiati?

Til jamiyatdan ajralgan holda mavjud bo'lolmaydi. Bu esa tilning ijtimoiy tabiatini belgilab beradi. Odamlar jinsiga, yoshi, kasbi, ma'lumoti, ijtimoiy mavqeiga ko'ra turlicha nutq modeliga ega bo'ladi. Natijada:

- bir so'zning turli ijtimoiy guruhlarda turlicha qo'llanishi;
- ma'lum grammatik shakllarning rasmiy va norasmiy vaziyatlarda farqlanishi;
- gap qurilishidagi uslubiy tafovutlar – bularning barchasi variativlikning ko'rinishlaridir.

### **Gender lingvistikaning variativlikka qo'shgan hissasi?**

Gender lingvistika til va jins o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadi. Bu yo'nalish ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlandi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki:

- erkaklar nutqi ko'proq buyruq ohangiga yaqin bo'ladi;
- ayollar nutqi esa muloyimroq, muvozanatli, shaklan to'liq gaplardan iborat bo'ladi;
- murojaat shakllari, xushmuomalalik strategiyalari ham jinsga ko'ra farq qiladi.

Bularning barchasi variativlikning genderga oid ko'rinishlaridir.

O'zbek tilida variativlik bir nechta qatlamlarda namoyon bo'ladi. Uning sotsiolingvistik ko'rinishlari ham juda xilma-xildir.

**Fonetik variativlik:** “qalay” – “qandaq” – “qanaqa”, “kelyapman” – “kelvomman” – “kelvoman” kabi.

Bu shakllar hududiy, yosh yoki uslubiy farqlanishlar natijasida yuzaga keladi.

**Leksik variativlik:** O'zbek jamiyatidagi ijtimoiy qatlamlar leksik boylikni ham turlicha qo'llaydi:

yoshlar so'zlashuvida: “zo'r”, “bomba”, “kruto”

rasmiy nutqda: “ma'qullanadi”, “tasdiqlanadi”, “taklif etiladi”

ayollar nutqida odatda yumshoq va ifodali so'zlar ko'proq ishlatiladi: “nozik”, “nazokatli”, “muloyim”.

**Grammatik va sintaktik variativlik:** Ayniqsa erkak va ayollar nutqida gap qurilishi farq qiladi:

Ayollar ko'proq to'liq, izohli gaplardan foydalanadi. Masalan: “Agar vaqt bo'lsa, siz bilan yana bir bor maslahatlashib olishni istardim.”

Erkaklar esa qisqa va aniq ifodani afzal ko'radi. Masalan: “Vaqt bo'lsa, yana gaplashamiz.”

Bu vaziyatlar gender bo'yicha farqlanadi. Masalan, ayollar OAVda ko'proq hissiy va ohangdor nutqdan, erkaklar esa analitik va qisqa konstruksiyalardan foydalanishga moyil.

**Gender variativlikni yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omillar-**Gender variativlik oddiy til farqlari emas, balki chuqur sotsiolingvistik jarayonlar natijasidir.

Bir xil odam turli vaziyatlarda turlicha nutq ishlatadi. Jins bu jarayonga qo'shimcha omil sifatida ta'sir ko'rsatadi.

Misol: Ayol o'qituvchi dars jarayonida rasmiy nutqdan foydalanadi,

ammo uyda yumshoqroq, hissiyroq nutqga o'tadi.

Erkak esa boshliq yig'ilishda buyruq ohangida gapiradi,

lekin do'stlari davrasida yoshlar slengidan ham foydalanishi mumkin. Tadqiqotlarda ayollar suhbatni davom ettirishga moyil bo'lishi, erkaklar esa mavzuni tezroq yakunlashga intilishi kuzatilgan. Bu ham nutq modelini farqlaydi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar ayollar nutqiga ham, erkaklar nutqiga ham yangi leksik qatlam olib kirdi:

“trend”, “like”, “blog”, “kontent” kabi so'zlar jinsdan qat'i nazar qo'llanmoqda.

Bu esa gender variativlikning yangi bosqichga o'tganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak: O'zbek tilida variativlik tabiiy jarayondir va tilning moslashuvchan tizim sifatida mavjudligini tasdiqlaydi. Lingvistik birliklarning o'zgaruvchanligi ijtimoiy faktorlar, madaniy qadriyatlar, kommunikativ jarayon va gender rollar bilan uzviy bog'liq. Gender variativlik esa inson jamiyatida mavjud bo'lgan sotsiolingvistik munosabatlarni aks ettiradi. Ayollar va erkaklar nutqidagi lisoniy tafovutlar faqat biologik emas, balki ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida shakllanadi. Bu farqlar tilning boyishi, uslubiy xilma-xilligi va ijtimoiy qatlamlarga moslashuvchanligini ta'minlaydi. Kelgusida gender lingvistika bo'yicha tadqiqotlarning kengayishi o'zbek tilidagi yangi variativlik shakllarini, ayniqsa zamonaviy media tilida yuzaga kelayotgan jarayonlarni chuqurroq o'rganish imkonini beradi

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston milliy ensklopediyasi (2000-2005)
2. Tilshunoslikka kirish (2007 Xolmonova Z.T.)
3. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotga kirish. Toshkent, "O'zbekiston" 2007.
4. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi.
5. <https://arxiv.org>
6. <https://uz.wikipedia.org>



INNOVATIVE  
ACADEMY